

## OGAHY ASARLARINI O'RGANISHDAGI OLIB BORILGAN KENG ISLOHOTLAR

Tojiboyeva Feruza

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik: arab tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Alimuhammedov Rixsitilla

Ilmiy rahbar: F.f.n, Dotsent

### Annotatsiya:

Bu maqolada O'z davrining jamoat arbobi, Tarixnavis, Tarjimon yetuk Shoir Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy asarlari va ular ustida olib borilgan islohotlar yoritib berilgan.

### Annotation:

This article highlights the works of the prominent Uzbek poet, Mukhammad Rizo Erniyozbek Ogahiy, including his poems and translations, along with their significance in the context of his era.

### Аннотация:

В этой статье написано про произведения авторитета общества своего времени, историка, зрелого переводчика Шоир Мухаммад Ризо Ернийозбек огли Огахий и работы над ним

Kalit so'zlar: Ogahiy lirikasi, "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, tarjimalar, tarixiy asarlar, Ogahiyshunoslik, tadqiqotlar, izlanishlar, Ogahiy majmualari.

**Keywords:** Ogahiy's lyricism, translations, historical works, Ogahiy studies, research, explorations, Ogahiy collections.

**Ключевые слова:** Лирика Огахий, сборник «Таъвиз ул-ошикин», переводы, исторические произведения, наука «Огахий», исследования, изучение, сборник Огахий.



Sharq uyg'onish tamaddunidir. Sharq dunyo rivojlanish beshigi. Insoniyat tarixiga nazar solsak, jahondagi ilm ravnaqiga hissa qo'shgan ko'plab olimlar, fozil-u fuzalolar, mutafakkir-u ahli ilmlar sharqdan yetishib chiqqanini guvohi bo'lamiz. Eng ahamiyatli jihati shundaki, ular hech bir davr to'xtab qolgan emas. Har bir davr o'zining qaysidir jihati bilan rivoj topgan, ilg'orlagan. Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimiz tib, falakkiyot, riyoziyot, xandasa kabi fanlar ravnaqiga hissa qo'shgan bo'lsalar, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Mashrab, Ogahiy kabi allomalarimiz o'zining ko'ngil toridan bahramand etib, ilmni she'riyatni shunday anglatdilarki, qalblar qa'rigacha yetib bordi. O'tkir tafakkur egalari har doim ilmni qaysi yo'l bilan bo'lmasin yetkazish tarqatish payida bo'lishgan. Zero, bu mutafakkirlar nazdida ularni yelkasidagi bir vazifa bo'lgan. O'sha og'ir mashaqqatli davrlarda ham bu bilimlarni avlodlarga yetkazib berish uchun jonjahdi bilan kurashganlar va ular bu vazifalarni ustidan chiqa olishdi. Barcha davrlarda yashagan olim-u, avliyolarimizni birlashtirib turadigan yagona yagona xususiyat bor: ular turli yo'nalishlarda ijod qilishmasin, barchasi turli xil majoziy, ramziy timsol obrazlar yordamida ishq ilohiyni kuylaganlar. Shunday ahli ilmlardan Navoiy, Jomiy asarlarini o'rganish ular tiriklik chog'idanoq amalga oshirilgan. Ularga shogird sifatida Ogahiy ularning ijodini davom ettirdi, yanada hozirgi tilga tushunarli qilib bayon qildi. Uning asarlari diltortar misralari bilan, fikrlarini aniq va ortiqcha murakkabliklarsiz ifodalaganligi bilan e'tibor jalb etadi. Ogahiy O'z asarlarida o'z qalbiga oyna tutgandek bo'ladi, shuning uchun ham uning asarlarini o'qishni boshlagan odam, asarlar ichiga sho'ng'ib ketadi, qalb go'zalligidan rohat oladi. Sharq she'riyatida shunaqangi mavzular borki, ular turli shoirlar tomonidan davom ettirilib, yangidan yangi misli ko'rilmagan qirralari asta-sekinlik bilan ochiladi. Bir qancha shunday mavzular nomlari Ogahiy nomi bilan uzviy bog'liq. Ogahiyning asl ismi Muhammad Rizodir. Ogahiy asli uni taxallusi bo'lib, "sergaklantiruvchi" degani. Agar mushohada qilsak, buning ortida chuqur ma'no ifodalanganini ya'ni "kosa tagida nimkosa" borligini anglaymiz. Ogahiy 1809-yili Xivaning Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. U mohir tarjimon, tarixchi va shoirdir. Ogahiy lirik she'rlarini to'plab, "Ta'viz ul- oshiqin" nomi bilan devon tuzadi. Bu devon bizgacha to'liq yetib kelgan. Devon mashxur kotiblar tomonidan bir necha bor ko'chirilgan va oktyabr inqilobidan oldin ikki marta chop etilgan. Yuksak badiiy mahurat bilan yozilgan ijtimoiy, axloqiy va muhabbat mavzuidagi g'azallar,



muxammas, musaddas, ruboiy, masnaviy va boshqa she'rlardan tashkil topgan bu devonda shoir tafakkuri uning boy ichki dunyosi zamoniga, zulm va zolimlarga nafrati, oddiy mehnatkash xalqqa muhabbati, hayotga muhabbati o'zining badiiy ifodasini aks ettirgan. Bu devonga 20 dan ortiq janrdagi asarlarning kiritilganining o'ziyoq, Ogahiyning she'riy asarlari ko'lamini belgilab beradi. Ogahiy o'z sheri misralari bilan qalblarimiz to'ridan shunday joy egallaganki, har bir bayti kuyga solinib, qo'shiq qilingan. Uning g'azallari shashmaqomning barcha kuyiga tushib ketaveradi. Uning tarixiy asarlari ham bir olam. Ogahiy o'z tarixiy asarlarida har doim achchiq bo'ladimi yoki shirin haqiqatni yozgan. Ogahiyning 5 ta mustaqil tarixiy asari va 1 hammuallifdagi asari mavjud. U o'z ustozini Munis vabo kasalligidan vafot etganidan so'ng, "Firdavs-ul iqbol" nomli tarixiy asarni davom ettirdi.

O'zining mustaqil 5 ta tarixiy asari quyidagilar: "Riyoziy ud-davla", "Zubtad ut-tavorix", "Jome ul-voqeati sultoniy", "Gulshani davlat" va "Shoxidi iqbol" deb ataladi. Ogahiy o'zining bu tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiqroq davrini aks ettiruvchi tarixiy xronikasini yaratdi. Bu asarlardagi juda ko'p materiallar Xorazm xonligining iqtisodiy va siyosiy hayotini, tashqi mamlakatlar bilan munosabatlarini o'rganishda, aholini turmush urf-odatlarini tadqiq etishda katta ahamiyatga ega.<sup>1</sup>

Ogahiy asarlarini nafaqat o'zbek balki rus sharqshunoslari, olimlari ham sobiq sovet davrida qo'ldan kelgancha o'rganib chiqdilar. Ba'zida bu asarlardan o'z manfaati yo'lida foydalanishdi ham. Ma'lumki, har qaysi millatni tobe qilib qaramlikda ushlab turish uchun avvalo, ularga tarixini arzimagan voqelikdan iborat deb ko'rsatish, tarixini mensimaslikka o'rgatish lozimligini hisobga olsak, ular buni to'laqonli amalga oshira olishdi. Jumladan, V. V. Bartold Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga bunday ta'rif beradi: "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasin, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi".<sup>2</sup> Yuqorida keltirilgan iqtibosda ham Munis va Ogahiyning kamchiliklariga alohida urg'u beriladi.

<sup>1</sup> Огахий асарларининг тавсифи. Каталог. Ф. Ганихужаев. - Тошкент - 1986. 20- бет.

<sup>2</sup> Атокли шоир, тарихнавис, таржимон. Мерос нашриёти. 1999- йил. 125-126-бетлар.



O'zbek sharqshunoslaridan ham bir qancha olimlar izlanish olib bordilar. Ular orasida R. Majidiy, Q. Munirov, R. Orzubekov, F. G'anixo'jayevlar izlanishlari alohida tahsinga sazovordir, ammo bu izlanishlardan tashqari Ogahiyning yana qancha o'rganilmagan asarlari, tarjima-yu g'azallari bor. Akademik G'ofur G'ulom O'zbekiston Kommunistik partiyasining XIII syezdida so'zlagan nutqida ko'pgina shoir va tarixchilarimizning hayoti, ijodi va ulardan qolgan meros o'rganilmayotganini ta'kidlab bunday degan edi: Mamlakatimizning boshqa xalqlari kabi o'zbek xalqi ham o'zining asrlar davomida yaratilgan boy, o'ziga xos ma'daniyatiga ega. Bu o'lkada fan, adabiyot va san'atning qator ulug' arboblari yetishib chiqqanlar. Sovet davrida ularning adabiy merosini o'rganish sohasida katta ishlar qilindi. Bu muhim prinsipal ahamiyatga egadir. Shuni aytib o'tish kerakki, keying yillarda hech qanday asossiz Lutfuy, Atoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Ogahiyning hayoti ijodi o'rganilmayotir. Biz faqat Navoiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi buyuk shoirlarning ijodini o'rganish bilan cheklanib qolganmiz.<sup>3</sup> Tarixnavislikda tajriba orttirib, malaka hosil qilgan Ogahiy tarixiy asarlar yaratib, XIX asr O'zbek ilmiga katta hissa qo'shadi. Bu bebaho asarlarning tarixiy marifiy ahamiyati haqida yirik sharqshunos tarixnavis olimlardan V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, P.P. Ivanov, Yahyo G'ulomov, Q. Munirov va boshqalar qimmatli fikrlar bildirganlar. Ogahiyning tarjimonlik sohasidagi faoliyati ham tahsinga sazovordir. U fors tilida yaratilgan 18 ta asarni va mashhur diniy asar "Daloie-ul-xayrot"ni usmonli turk tilidan o'zbekchaga tarjima qiladi. Bu haqda shoir "Ta'viz ul-oshiqin" devoni debochasida shunday yozadi: "Faqirning turk tili bilan tarjima qilgan kitoblari: "Ravzat us-safo"ning ikkinchi daftaridan chohoriyori izom voqeasi va uchinchi daftari va "Nodirnoma" va "Zafarnoma" va "Zubtad ul-hikoyat" va "Miftoh ut-tolibin" va "Axloq ul-Muhsiniy" va "Vosifiy" va "Nasihatnomai Kaykovus" va "Salomoni Ibsoli Jomiy" va "Ravzat us-sasoyi Nosiriy"ning bir daftari rum turkiysidan chig'atoy tiliga o'tkarildi va... Shoir tomonidan tuzilgan ushbu aniq va to'liq ro'yxatda keltirilgan asarlar hozirgi kunda Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe shaxarlaridagi sharq qo'lyozmalari xazinalarida saqlanib turibdi. Ogahiyning serqirra tarjimonlik faoliyatini tadqiq etish sohasidagi ilmiy izlanishlar boshlab yuborilgan. Professor N. Komilov, adabiyotshunoslar S. Dolimov, Q. Munirov, V. Rahmonov, F. G'anixo'javeylar ancha ibratli ishlarni amalga

<sup>3</sup>Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. К. Муниров. -Тошкент-1960.21-бет.



oshirdilar. Ayniqsa, Fatxulla G'anixo'jayev tomonidan Ogahiy asarlarini to'liq fehersti tuzilganligi va uni nashr etilganligini alohida ta'kidlash zarur. Shuni diqqatga sazovorki, tadqiqotchi qo'lyozma manbalarini qiyoslab o'rganish jarayonida 10 ta asar qo'lyozmasi Ogahiyning o'z dastxati ekanligini aniqladi.<sup>4</sup>

Ogahiy asarlari o'rganilishni boshlagandan so'ng, "Ogahiyshunoslik" fani vujudga kela boshladi. Bunda Ogahiyshunos Subutoy Dolimov katta ishlar amalga oshirdi. U 1958-yili Toshkentdan Xiva shahriga boradi. U yerda tadqiqot ishlarini amalga oshiradi. Oradan chamasi bir yillar o'tgach G'ofur G'ulom, Ibrohim Mo'minov, Qori Niyoziy, Uyg'un, Egam Rahim va Quvomiddin Munirovlar ham keladilar.

Subutoy Dolimov 1962-yilda "Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qildi va ijodining mahsuldorligi hamda asarlarining badiiy go'zalligi nuqtai nazaridan Ogahiy o'zbek adabiyotining yirik vakili degan ilmiy xulosaga keldi. 1970-yilda Subutoy Dolimov va Professor G'ulom Karimov hamkorlikda Ogahiyning 6 jildlik asarlar majmuasini nashrga tayyorlashga kirishib, bu ishni 1980-yilda muvaffaqiyatli tugatdilar. Majmuaning birinchi va ikkinchi jildlari Ogahiyning lirik devoni- "Ta'viz ul-oshiqin"ni, uchinchi va to'rtinchi jildlari shoirning tarjima asarlarini, beshinchi va oltinchi jildlari esa Ogahiyning tarixiy asarlarini o'z ichiga oladi. 1991-yil Subutoy Dolimov Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Kaykovusning "Qobusnoma" asarini tabdil qilib nashrga tayyorlagan.<sup>5</sup>

Ogahiyshunoslar orasida o'zining olib borgan izlanishlari bilan ajralib turadigan yana bir olim bu Quvomiddin Munirovdir. Uning "Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari" nomli kitobi 1960-yili O'zbekiston SSSR Fanlar Akademiyasi nashriyotida bosmadan chiqadi. Bundan tashqari "ogahiy ilmiy va badiiy faoliyati" (1959) asari muallifi hamdir. 1986-yilda esa Fatxulla G'anixo'jayev bilan birgalikda "Ogahiy asarlarining tavsifi" katalogi dunyo yuzini ko'rdi. "Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari" kitobida nafaqat Ogahiy va uning asarlari balki o'sha davrdagi siyosiy va iqtisodiy muhit, xalq axvoli, ijtimoiy holati el dardi-barchasini ochiq oydin bayon qiladi. Munis va Bayoniy haqida ham so'z yuritib, ularning asarlari va ilgari surgan g'oyalari haqida ma'lumot beradi.

<sup>4</sup> Огахий абадияти. Тошкент- 1999- йил. 93-94-бетлар.

<sup>5</sup> <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>





Yana Ogahiyning she'riy me'rosini o'rganish,tahlil etish,ularni ommalashtirish borasida bir qator ilmiy asarlar ham yozildi.Ular Ogahiyshunoslikni boshlab bergan olimlarimiz V.I.Zohidov, A.P.Qayumov, S.Dolimov, R.Majidiy, Q.Munirov,G'.Karimov va boshqalardir.<sup>6</sup>O'zbekiston Xalq Yozuvchisi O'tkir Xoshimov o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ulug' shoir Ogahiyning o'ziga xos betakror o'rni borligi ,uning turli janrlardagi asarlari insonlar qalbiga abadiy nur va ezgulik tarqatuvchi marifiy manbaligini aytib o'tgan edi.

Atoqli shoirimiz Ogahiy haqida asar bitish kishidan rostini aytganda ulkan bir jasorat talab qilishi ayni haqiqatdir.Chunki tarixdan yetib kelgan ma'lumotlar asosida asar yaratishda ham faqat rost,haqiqatlarni ajratib olish juda muhim.Bu haqda Komil Avaz shunday fikrlar bildiradi: "Nima bo'lgandayam iymonishga,andishaga asos bor.Shu boisdan ham yuqorida aytganimdek "Dilbandi Xiva"ni yozishdan avval Yaratgandan nusrat, Rosululloh(s.a.v.)dan maslahat so'radim.So'ngra Toshkentga, A.Navoiy nomidagi adabiyot muzeyiga, Til va Adabiyot hamda Qo'lyozmalar institutiga bordim, moziy sahifalarini ozmi-ko'pmi varaqaladim,mumtoz adabiyotimizning zukko bilimdonlari taniqli Ogahiyshunoslar A.Po'latov, Q.Munirov, F.G'anixo'jayev, M.Xakimov va boshqa olimlar bilan suxbatlashdim,ularning Ogahiy ijodi oldida hayratu havaslaridan mag'rurlandim...  
»<sup>7</sup>

Ogahiy asarlarini o'rganish,asarlari o'xshatma muxammaslar bitish hozirgi zamonaviy o'zbek adabiyotida ham yetakchi o'rinlarni egallaydi.Jumladan,zamonaviy adabiyotimizning, she'riyatimizning yorqin vakili Omon Matjon o'z ijodida,faoliyatida Ogahiy ustoz deb biladi.Adabiyotimizda mashxur "Ustina" g'azaliga bog'langan muxammasi ham ma'lum va mashxurdir. Ogahiy tilidan aytilgan quyidagi misralar ham insonni tafakkur qilishga chorlaydi:

Ko'ngil,dedi,fahriyangni,dardimni topgin chorasin,  
Yon,oshiq ul,hech bosmasin,  
Davron changi ko'z qorasin,  
Qilgil tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lganin payvand shamshod ustina...

<sup>6</sup> Огахий асарларининг тавсифи.Каталог. Ф.Ганихужаев. -Тошкент- 1986

<sup>7</sup> Огахий абадияти. Тошкент- 1999- йил.43-бет.



Birdan tilimni tishladim...<sup>8</sup>

Bunga javoban esa Omon Matjon shunday satrlar keltiradi:

Birdan tilimni tishladim, izza boqib yon-vergakim,

Darkormi so'z ustozlaring so'z aytmagan bir yerdakim,

Bor jur'ating, yozgin Omon, yurtning ovozin she'rgakim,

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,

Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zoru noshod ustina!<sup>9</sup>

Hozirgi kunda Ogahiy nomini abadiylashtirish maqsadida Ogahiy nomida kutubxon alar, maktablar qurilmoqda, bog'lar barpo etilib, ko'chalarga nom berilmoqda. Hozirda uning uyi muzeyga aylantirilgan. Uning ijodi asli bir gulzor. Uning asarlari rangbarangligi bilan, ham tarixdan, ham zohidligu ishqdan, ham jahon asarlaridan tarjimalar keltirishi bilan latofatlidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kundagi dolzarb vazifamiz, oldin olib borilgan islohotlarga tayanib, Ogahiy asarlarini yanada chuqurroq tatbiq etish, keng ommaga tanishtirishdan iboratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Огахий асарларининг тавсифи. Каталог. Ф. Ганихужаев. - Тошкент- 1986.
2. Атокли шоир, тарихнавис, таржимон. Мерос нашриёти. 1999- йил.
3. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. К. Муниров. - Тошкент- 1960.
4. Огахий абадияти. Тошкент- 1999- йил.
5. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ogahiy>

<sup>8</sup> Огахий абадияти. Тошкент- 1999- йил. 141-бет.

<sup>9</sup> Ogahiy. Wikipedia.